

Toshkent shahridagi Xalqaro Vestminster universitetida “Kiberxavfsizlik va huquqbuzarliklarga qarshi kurash va ularning oldini olish” mavzuida o‘tkazilgan yig‘ilish

BAYONNOMASI

2025-yil 24-sentyabr

Istiqbol binosi 201-xona

Raislik qiluvchi: N.Kodirov -Yoshlar masalalari va MMIB birinchi prorektori

Kotib: F.Ismagilova- universitet katta tyutori,

Qatnashdilar: Toshkent shahar Ichki Ishlar Bosh Boshqarmasining Kiberjinoyat bilan kurashish boshqarmasi ma'sullari Ulug‘bek Choriev, Ilxom Yusupov, Mirjavxar Latipdjanov, TXVU rektori maslahatchisi, R.Mansurbayev, universitet pedagog hodimlari va 83 nafar talaba yoshlar

KUN TARTIBI.

1. Kiberxavfsizlikning dolzarb masalalari to‘g‘risida.
2. Huquqbuzarliklarning oldini olishning huquqiy asoslari.
3. Talabalar o‘rtasida kiberjinoyatlarga qarshi profilaktik choralarni kuchaytirish.

2025-yil 24 sentyabr kuni Toshkent shahridagi Xalqaro Vestminster universitetida “Kiberxavfsizlik va huquqbuzarliklarga qarshi kurash va ularning oldini olish” mavzuida yig‘ilish o‘tkazildi. Yigilishga TXVU Yoshlar masalalari va MMIB birinchi prorektori N.Kadirov raislik qildi.

Raislik qiluvchi yigilganlarni yig‘ilish ishtirokchilari va kun tartibidagi masalalar bilan tanishtirdi.



Shuningdek, yoshlar orasida huquqiy madaniyatni shakllantirish, ularni jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning salbiy oqibatlari haqida ogohlantirish hamda jamiyatda huquqiy ongni yuksaltirish ushbu yig'ilishning muhim jihatlaridan biri ekanligini, yoshlar Vatanimiz kelajagi ekanliklari, yoshlarning istagan yo'nalishlarida ta'lim olishlari va faoliyat yuritishlari uchun yurtimizda joriy etilgan cheksiz imkoniyatlardan o'rinli foydalanishlari, talaba- yoshlar o'z yo'llaridan adashmasliklari, kelajaklari o'z qo'llarida ekanliklarini unutmasliklarini yana bor bor eslatib o'tdi.

Shundan so'ng so'zni Toshkent shahar Ichki Ishlar Bosh Boshqarmasining Kiberjinoyat bilan kurashish boshqarmasi ma'suli Ulug'bek Chorievga berildi.

Ulug'bek Choriev kiberxavfsizlikning bugungi kundagi ahamiyati, internet va axborot texnologiyalarining keng qo'llanilishi natijasida yuzaga kelayotgan kiberjinoyatlar, ularning talaba-yoshlar hayotidagi xavf-xatarlari haqida so'z yuritdi. Shuningdek, kiberjinoyatlarning turlari, ularning oqibatlari, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish usullari va kiberhujumlarga qarshi kurashning zamonaviy mexanizmlari haqida ma'ruza qildi.



Shundan so'ng raislik qiluvchi so'zni Toshkent shahar Ichki Ishlar Bosh Boshqarmasining Kiberjinoyat bilan kurashish boshqarmasi ma'suli Ilxom Yusupovga berdi. Ilxom Yusupov kiberjinoyatlar bilan bog'liq huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyat kodeksidagi tegishli moddalar, kiberjinoyatlarga qarshi samarali kurashish uchun tadqiqotlar, xalqaro tajriba almashish va davlat organlari bilan hamkorlik kengaytirish masalalari olib borilayotgani, kiberjinoyat holatlari yuzaga kelganda maxsus aloqa kanali yoki "Ishonch telefoni"ga qo'ng'iroq qilish lozimligini ham eslatib o'tdi. Shuningdek Yoshlar huquqbuzarliklarni oldini olish uchun avvalo o'z xatti-harakatlari, atrof-muhiti va ma'naviy rivojlanishiga alohida e'tibor berishlari zarurligi bunda huquqiy bilimlarni oshirishlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Jinoyat kodeksi va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksdagi yoshlar bilan bog'liq asosiy moddalardan xabardor bo'lishlari, internet va ijtimoiy tarmoqlardan ongli foydalanishlari, noma'lum havolalarni bosmaslik, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, Kiberjinoyatlar (phishing, firibgarlik, yolg'on reklama)dan ogoh bo'lishlari, yolg'on axborot tarqatish yoki haqoratli postlar ham huquqbuzarlik ekanini unutmasliklari, asosiysi do'stlar va muhitni to'g'ri tanlashlari nomaqbul odatlarga (giyohvandlik, qimor, noqonuniy yig'ilishlar) undovchi shaxslar bilan aloqani cheklashlari, ijobiy fikrlaydigan, bilim olishga intiluvchi do'stlar bilan muloqot qilishlari, shaxsiy mas'uliyatni his qilishlari har bir harakatning huquqiy oqibatlari borligini tushunib ish tutishlari, ota-ona, ustozlar va jamiyat oldidagi burchni his qilishlari, bo'sh

vaqtni mazmunli o'tkazishlari, sport, san'at, ilmiy to'garaklar, orqali vaqtni foydali mashg'ulotlar bilan to'ldirishlari foydadan holi emasligini ta'kidlab o'tdi.



Shundan so'ng talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollar bilan murojaat qilib, kiberxavfsizlikni ta'minlash bo'yicha foydali tavsiyalar oldilar.

Yuqorida bildirilgan fikrlarni inobatga olgan holda

QAROR QILINDI:

1. Universitetda tahsil oluvchi talaba yoshlar o'rtasida huquqiy savodxonlikni maqsadida soha vakillari ishtirokidagi yig'ilishlarni doimiy o'tkazib borilsin.
2. Universitetda talaba-yoshlar tomonidan jinoyatchilik va xuqubuzarlikni oldini olishga qaratilgan targ'ibot- tashviqot ishlari kuchaytirilsin.
3. Universitetda muntazam ravishda kiberxavfsizlik bo'yicha seminar va treninglar o'tkazish.
4. Talabalar o'rtasida internetdan foydalanish madaniyatini oshirish bo'yicha targ'ibot ishlarini kuchaytirish.
5. TXVU da tahsil oluvchi talaba yoshlar o'rtasida Yoshlarni huquqiy bilimlar bilan tanishtirish, ularning huquq va majburiyatlari to'g'risida tushunchalarini kengaytirishga erishilsin
6. TXVUda tahsil oluvchi talaba yoshlarni bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida turli tanlov va musobaqalarni doimiy o'tkazib borishga erishilsin.

Yig'ilish raisi:

N.Kodirov -Yoshlar masalalari va MMIB
birinchi prorektori

Kotib:

F.Ismagilova -universitet katta tyutori